



TIJORAT BANKLARIDA MOLİYAVIY HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLARGA TRASFORMATSIYA QILISH

Qambarov Abrorjon Anvarjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank moliya

akademiyasi MBA-banking yo'nalishi tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish, unga muvofiqligi masalalari ustuvor vazifa sifatida ko'rib chiqiladi, tijorat banklarida MHXS ga muvofiq moliyaviy hisobotni transformatsiyasining zarurati va roli, xususan, malakatga chet ellik investorlarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar, mamlakatning investitsion jozibadorligini ko'rsatib beruvchi richaglarga e'tibor qaratilmoqda, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-4611-sonli qarori asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi, uning amaliyotda qo'llanilishi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikir yuritilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, transformatsiya, tijorat banklari, hisobotlar, tamoillar va investorlar.

Kirish. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil etishda, avvalom bor, ularda mukammal tarzda hisob siyosatini shakllantirish, har qanday foydalanuvchilar uchun



tushunarli bo'lgan va samarali boshqaruvni ta'minlovchi moliyaviy hisobotlarni tuzish kabi uslubiyatlarni yaratish lozim bo'ladi.

O'zbekistonda bank tuzilmalarini jahondagi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari qatoriga kirishini ta'minlash va bu sohada jahon amaliyoti yutuqlarini bevosita bank tizimi faoliyatiga qo'llash, jahon bank tizimidagi banklarning moliyaviy hisobotlarini tuzishning kontseptual va o'ziga xos asoslarini ishlab chiqarish va bank amaliyotiga qo'llash bevosita banklarning rivojlanishi va mustahkamlanishiga turtki bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, so'ngi yillarda xorij sarmoyalarining sezilarli ravishda ortib borishi bank tizimiga bo'lgan ishonchning yana oshishidan dalolat bermoqda. Bu esa o'z navbatida tijorat banklarining turli potentsial foydalanuvchilarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning sifat tavsifini va axborotlarning oshkoralik darajalarini yanada kuchaytirish lozimligini bildiradi va bunda jahon amaliyotida ishlab chiqarilgan moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) ni qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish usullari quyidagilardan iborat:

- parallel hisob yuritish;
- moliyaviy hisobot transformatsiyasi.



1-jadval

Parallel hisob yuritish	Moliyaviy hisobot transformatsiyasi	Farqli jihatlari
Parallel hisob yuritish – bir vaqtning o'zida yuritilayotgan BHMS hisobi bilan birgalikda MHXS asosida hisob yuritish.	Hisobotni transformatsiya qilish chog'ida BHMS bo'yicha mavjud ma'lumotlar stornolanadi va ularning o'rniga MHXS bo'yicha hisob yuritish ma'lumotlari aks ettiriladi.	Transformatsiya qilish usuli korxona uchun xarajatlarni tejash, kadrlar bilimini oshirish, shuningdek auditorlik tashkiloti va konsalting firmalar tomonidan amalga oshiriladi.
Parallel hisob yuritish chog'ida har bir xo'jalik operatsiyasi ikki marta: BHMS bo'yicha hisob yuritish tizimida va MHXS bo'yicha hisob yuritish tizimida ro'yxatdan o'tkaziladi.	Transformatsiya – hisob yuritishga doir axborotni qayta guruhlash va BHMS bo'yicha tayyorlangan hisobot moddalariga tuzatish kiritish yo'li bilan MHXSga muvofiq hisobot tuzish jarayoni.	Parallel hisobda malakaviy kadrlar yetishmasligi, buxgalteriya hisobini to'g'ridan to'g'ri xalqaro standartlarda yuritish imkoniyatini beradi.
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot MHXS bo'yicha buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.	BHMS bo'yicha va MHXS bo'yicha hisob siyosatlarining yaqinlashtirilishi hisobotni transformatsiya qilish chog'ida kiritiladigan tuzatishlar sonini kamaytirish imkonini beradi.	



Parallel buxgalteriya hisobini yuritish O'zbekiston buxgalteriya hisobi va hisobot tizimi qoidalariga va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya registrlarida korxonaning xo'jalik faoliyati faktlarini aks ettirishni o'z ichiga oladi. Bunday holda, biznes bitimi fakti ikki marta hisobga olinadi.

Parallel buxgalteriya hisobini yuritishning afzalliklari shundan iboratki, taqdim etilgan ma'lumotlar hisobotda to'g'ri aks etadi. Ichki foydalanuvchilar O'zbekiston tizimi bo'yicha tayyorlangan hisobotlardan foydalanishlari mumkin, tashqi iqtisodiy faoliyat uchun esa MHXS bo'yicha hisobotlar qo'llaniladi. Ushbu variant ham qulaydir, chunki MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishning ixtiyoriyligi tufayli barcha tashkilotlar ham ushbu qoidalarga o'rgatilmagan va MHXSga muvofiq olingan ma'lumotlar ular uchun tushunarsiz bo'ladi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonlik buxgalterlar MHXS bo'yicha etarli tajribaga ega emaslar, ya'ni moliyaviy hisobotlarni ushbu standartlarga muvofiq noto'g'ri tuzish ehtimoli yuqori. Binobarin, tashkilotning moliyaviy faoliyati bir qator muammolarga olib keladigan ishonchsiz ma'lumotlarga ega bo'ladi va menejment va boshqaruv tizimi bo'yicha hisobot korxona faoliyatini to'g'ri va to'liq aks ettiradi.

Hozirgi vaqtda parallel yozuvlarni yuritish uchun maxsus avtomatlashtirilgan dasturlar mavjud. O'zbekistonning buxgalteriya hisobi tizimidagi biznes hisoblari uchun ushbu dasturlarga ma'lumotlarni kiritishda xuddi shu miqdor MHXSga muvofiq aks ettiriladi.

Shu bilan birga parallel buxgalteriya hisobining kamchiliklari ham bor. Ikki tomonlama buxgalteriya hisobini yuritish, shuningdek, buxgalteriya ma'lumotlarini tuzish uchun ikki baravar xarajatlarni talab qiladi (xodimlarning malakasi, qimmat dasturni sotib olish va boshqalar).

Moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish milliy hisobotlarni MHXSga yaqinlashtirishni anglatadi. Qoida tariqasida, transformatsiya - bu O'zbekiston balansi va



daromadlar to'g'risidagi hisobot moddalaridan MHXS bo'yicha tegishli ko'rsatkichlarga o'tishni aniq ko'rsatadigan jadvallar to'plami. Transformatsiya jarayoni tashkilotning o'zida yoki uchinchi tomon ixtisoslashgan tashkilotlarini jalb qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Parallel buxgalteriya hisobiga nisbatan hisobotni transformatsiya qilishning afzalliklari shundaki, uni tayyorlash osonroq, garchi u maxsus ko'nikmalarni talab qiladi. Yana bir xususiyat nisbatan past xarajatlardir.

Ammo transformatsiyaning kamchiliklari shundaki, hisobot berish yuqori axborot xavfiga ega, uning noto'g'riligi juda yuqori bo'lishi mumkin. Shuni ham aytish mumkinki, hisobot foydalanuvchilarga operativ ma'lumot bera olmaydi, chunki u milliy standart qoidalariga muvofiq hisobot tuzilgandan keyingina tuziladi.

Xulosa. Tijorat banklarida MHXSlariga istalgan paytda, tayyorgarliksiz, to'g'ridan-to'g'ri o'tib bo'lmaydi. Agarda tayyorgarliksiz moliyaviy hisobot MHXSlar bo'yicha transformatsiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, MHXSlarni birinchi marta qo'llashda yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni transformatsiya qilishdan oldin muhit, shartsharoit va ma'lum tayyorganlik ishlari olib borilishi shart. Biz bu omillarga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman:

- mamlakat iqtisodiyotida yuqori inflyatsiya darajasi bo'lmashligi kerak;
- tijorat banklarida buxgalteriya hisobi milliy standartlari tizimi imkon qadar MHXSlariga uyg'un bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Agar o'rtada tafovut katta bo'lsa transformatsiya jarayoni qiyinlashadi, transformatsiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi;
- tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishda me'yoriy huquqiy hujjat faqat Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun va buxgalteriya hisobi standartlari bo'lishi kerak. Nizomlar, yo'riqnomalar va qoidalarni ham



- bosqichma-bosqich standartlarga aylantirishimiz kerak;
- banklarda (foyda olishni maqsad qilib qo'yishi va qo'ymasligidan qat'i nazar) buxgalteriya hisobi bo'yicha alohida standartlarni bo'lishini ko'zda tutmasdan, balki yagona standartlar tizimini yaratishimiz kerak, qaysiki undagi qoidalar barcha turdagi banklarga bir xil mazmunda qo'llanilishiga erishishimiz kerak;
- moliyaviy hisobotni taqdim etish valyutasini xalqaro standartlarga muvofiq erkin ravishda belgilash tartibiga o'tish imkoniyatlari yaratilishi kerak;
- tijorat banklarida hisob siyosatini mukammallashtirish, uni moliyaviy hisobot tamoyillariga to'liq rioya qilgan holda tuzilishi hamda chinakkam hisob loyihasi bo'lishi, shuningdek tijorat banklarda xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishchi schetlar rejasini ishlab chiqishga erishish va boshqa bir qator ishlarni amalga oshirish lozim, deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.Mirziyoyev, PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 24.02.2020.
2. IFRS Foundation web sites
3. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.
4. Muzrapova Sh, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi, Tafakkur manzili, 2020.
5. Ergasheva Sh.T., Uchebnik «Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti» –T.: TGEU, 2020 g.- 307 str.
6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 Moliyaviy instrumentlar (IFRS 9 –



International Financial Reporting Standart). IFRS Foundation 2022

7. The manual of Accounting – IFRS 2019. The Global Accounting Consalting Servisces team of PricewaterhouseCoopers LLP 2019.

8. www.mf.uz